

## XURSHID DO'STMUHAMMAD HIKOYALARIDA DAVR VA QAHRAMON MASALASI

Xolmatov Doston Abdujabbor o'g'li  
Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada bugungi kunda adabiy tafakkur jarayonida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida davr va qahramon masalasi tahlilga olingan.

**Tayanch so'zlar:** ijod labaratoriysi, sotsiologik metod, pafos, qahramon ruhiyati talqini, psixologik tahlil metodi.

**Keywords:** creative laboratory, sociological method, pathos, interpretation of heroic spirituality, method of psychological analysis.

**Ключевые слова:**творческая лаборатория, социологический метод, пафос, интерпретация героической духовности, метод психологического анализа

### **Kirish**

Bugungi kun zamonaviy adabiyotimizda paydo bo'lgan ko'plab e'tiborga tushgan asarlar, o'zbek adabiyotida ham yozuvchilik mas'uliyatini anglagan adiblar borligidan dalolat bermoqda. Ushbu yozuvchilar Abdulla Qodiriy va Cho'lpon jasoratining davomchilari bo'lib ko'zga tashlanmoqda. Mana shunday ijodkorlardan biri Xurshid Do'stmuhammad desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xurshid Do'stmuhammad milliy adabiy an'analarini ham, dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta o'rgangan, doimiy novatorlikka intilgan ijodkor. Adibning o'zi e'tirof etganidek, "Uslub o'zgarmasa,dunyoqarash,hayot murakkabliklarini badiiy idrok va ifoda etish yo'sinlari o'zgarmasa,shu yo'lda turli tajribalarga qo'l urmasa,bunday yozuvchi nafaqat milliy adabiyotda,loaqlal o'z ijodida ham biror bir yangilik yaratishi amrimahol".<sup>1</sup>

Asosiy qism. Adib Xushid Do'stmuhammad asarlarida yaxshilik, insoniylik, komillikkakeltuvchi g'oyalar bir so'z bilan aytganda, insonparvarlik deya atalmish beba ho tuyg'ular mujassamlashgan. Bilamizki, adabiy asarlar vaqt,zamon va makon tanlamaydi. Qachonki, kitobxon mutolaa qila boshlasagina asarlar yana yangidan yashay boshlaydi. Adibning ayniqsa, hikoyalarida har bir qahramonning ichki, kechinmalari ko'z oldimizda jonli aks etadi.

<sup>1</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xurshid-davron-xurshid-dostmuhammad-al-arof.html>

Hikoyalarini o‘qiy boshlagan paytizda go‘yoki, spektakl aktyorlari ko‘z oldingizda yaqqol gavdalanadi. Yozuvchining ham mahorati shunda, aslida.

Har bir yozuvchi alohida bir dunyo. Xurshid Do‘stmuhhammadning o‘zi ham ta’kidlaganidek: -“har bir ijodxona o‘zicha bir olam: shakl-shamoyili, ish tartibi, muhiti va hokazolari bilan. Juda ko‘p ishlar kayfiyatga bog‘liq”. Darhaqiqat, har bir yozuvchining o‘z ijod labaratoriyasi bo‘ladi. Ushbu labaratoriyada yangi tug‘ilajak asar uchun asos bo‘ladigan xotira va esdaliklar, yozuvchining qalb tug‘yonlarini ifodalovchi o‘zi boshidan o‘tkazgan hayotiy lavhalar mujassamlashadi. X.Do‘stmuhammad hikoya janrida mahoratli ijod qiladi. Ijodining o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, tarixga hurmat, milliylik ifodasi badiiy talqinda o‘zgacha bir pafos bilan tasvirlanadi. Ushbu jihatlar adibning tarixiy hikoyalarida ko‘zga tashlanadi.

Adibning “Oq libos” nomli hikoyasida XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida xonliklar hayotidan lavhalar aks etgan. Undagi Toshkent hokimi Yunusxo‘ja obrazi orqali o‘sha davr hokimiyat boshliqlariga xos umumlashma obraz sifatida tasvirlanadi. Yunusxo‘janing onasi Omila xonim yurtning ertasini o‘ylab tashvishda. Bemor yotgan holida o‘g‘lidan yurtning osoyishtaligini ta’minalashini, xalqni birlikka chorlashini so‘raydi. Yunusxo‘ja avvaliga onasining so‘ziga muvofiq ish tutadi. Ammo keyinchalik ba’zi kaltafahm amaldorlar hamda yoshlik qoni qaynagan, hayotning oq-u qora tomonlarini to‘liq anglab yetmagan o‘g‘illarining gapiga kirib, O‘rdaga hujum uyuştiradi, alaloqibat ushbu boshboshdoqliklarning natijasi esa tarixdan ham siz-u bizga ma’lum. Bu yerda Piri Tarxon obrazi ham alohida o‘ringa ega. Ne ne hukmdorlarni ko‘rgan, hokimiyat siyosatidagi ne ne o‘zgarishlarning guvohi bo‘lgan bu donishmand Yunusxo‘janing muzofot haqidagi qaroridan qaytarishga urinadi. Ammo ketma-ket g‘alaba nashidasidan sarmast bo‘lgan hokim o‘z bilganidan qolmaydi. X.Do‘stmuhammad ushbu hikoyasida ham xulosani kitobxonning o‘ziga qoldiradi. Hikoya so‘ngidagi Piri Tarxon tomonidan Yunusxo‘jaga aytilgan jumalalarga diqqat qiling:

“Omila onam oq libosda xalq huzuriga chiqdilar...Yurt notinch-onalar notinch,to‘ram...”

Yana gapir, Tarxon...

Bir, ikki, uch...

Nima deyapsan,Tarxon, qanday raqamlar, bular?

Tarxon javob bermadi lekin u dilida “ming bir yuz yetmish ikki...ming bir yuz yetmish ikki...hijriy” deb takrorlar, o‘zaro qirg‘inbarot yuz bergen bu sanaga mingdan ming la’natlar yog‘dirar edi... 2

<sup>2</sup> X.Do‘stmuhammad. “Beozorquşningqarg‘ishi”. “Sharq” nashriyotmatbaaksiyadorlikkompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2006. 39-bet.

Xulosa. Hikoyaning nomlanishi ham asosiy g‘oyasi ham shu yerda oydinlashadi. X.Do‘stmuhammad tarixni shunchaki hikoya qilish asnosida yozmaydi. Tarixiy haqiqatni badiiy haqiqat darajasiga olib chiqadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar:**

1. X.Do`stmuhammad. “Beozorqushningqarg ‘ishi”. “Sharq” nashriyotmat baaaksiyadorlikko mpaniyasi bosh tahririysi. Toshkent-2006
2. G. Sattorova. “90-yillar o‘zbek hikoyachiligi milliy xarakter muammosi”. Toshkent. 2002.
3. Каримов Б. “Адабиётшунослик методологияси”. Т. “Мұхаррір” нашриёти. 2011.
4. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. «Фан», 2006.
- 5.<https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/xurshid-davron-xurshid-dostmuhammad-al-arof.html>